

HIROT ADABIY MUHITIGA MONAND...

Sohiba UMAROVA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, (PhD)

sohibaumar@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804695>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hirot adabiy muhiti va uning keyingi davr saroy adabiyoti, xususan, Xorazm adabiy muhitiga ta'siri xususida yuritiladi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodining Ogahiy, Feruz, Sultoniy, Sa'diy, G'oziy, Asad kabi shoirlar ijodiga ta'siri ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Hirot, Xorazm, Alisher Navoiy, Ogahiy, an'ana, muhit, adabiy davra, shoir, g'azal.

Abstrakt: This article focuses on the literary environment of Herat and its impact on the palace literature of the later period, in particular the literary environment of Khorezm. The influence of Alisher Navoi's work on the work of poets such as Ogahi, Feruz, Sultani, Saadi, Ghazi, Assad is also shown.

Keywords: Herat, Khrezm, Alisher Navoi, Agakhi, tradition, environment, literary round, poet, gazal.

Har bir davrda markaziy shaharlar o'z san'ati, adabiyoti va ulamolari bilan alohida ajralib turadi. Zero, ma'lum bir xalqning madaniyati aynan shaharlarda jamlanadi. Ana shunday ma'lum va mashhur shaharlardan biri Xurosonning markazi Hirot edi. Tarixchi olim Hofizi Abro' Hirot shahrini shunday ta'riflagan ekan:

Gar kase pursad z-tu k-az shahrho xushtar kadom,

Gar javobi rost xohi dod o'ro, go': Hiri.

In jahon chun bahr don, dar vay Xuroson chun sadaf,

Dar miyoni on sadaf Hiri chun gavhari.

(Agar sendan qaysi shahar yaxshi deb so'rasalar, rost javob bermoqchi bo'lsang, Hirot degin. Bu jahonni bir dengiz, Xurosonni undagi sadaf, Hirot shahrini esa bu sadaf ichidagi gavhar deb bilgin).

Hirot adabiy maktabi turkiy xalqlar madaniyati va adabiyotining oltin sahifalarini yaratdi. Garchi bu yerdagi saroy tili aslida fors-tojik tili bo'lsa-da, bu markaziy shaharda Temuriylar sharofati tufayli turkiy til yanada yuksak darajaga ko'tarildi. Zahiriddin Muhammad Bobur esa Husayn Boyqaro zamonidagi olim, fozil va shoirlar haqida gapirib, ularning saromadi Mavlono Abdurahmon Jomiy, shuningdek, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfi Buxoriy va boshqalar haqida to'xtalib, shunday ta'rifni beradi: "Sulton Husayn mirzoning zamoni ajib zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg'ullug'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolg'a tegurgay" [Bobur, 1989: 159-160].

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Hirotda Oliy majlis deb atalgan alohida o'tirishlar aynan Sulton Husayn Boyqaro tomonidan boshqarilib, Husayniy shoh va shoir sifatida adabiyot, san'at rivojiga katta ahamiyat qaratgan. Alisher Navoiy tomonidan "Hayrat ul-abror" asaridagi Marviyga ishora etgan "Zoli zar va Shoh G'oziy hikoyati" ham bejizga kiritilmagan. Umuman, temuriylar davri madaniy hayoti va Hirot adabiy muhiti haqida maxsus tadqiqotlarda qimmatli ma'lumotlar berilgan [Sirojiddinov, 2023].

Darhaqiqat, Xuroson davlatida Hirot madaniyat, ma'rifat, san'at markazlaridan biri bo'lgan. Hirot adabiy muhitida Husayn Boyqaroning Navoiyga hurmati, uning ijodiga alohida tavajjuh bilan qarashi buyuk hodisa ekan, bu holatga buyuk mutafakkir va mutasavvuf shoirning hayotiy, ijodiy, ilmiy faoliyati to'la javob berar edi. Alisher Navoiy, avvalo, Hirot adabiy muhitiga tarix, san'at, adabiyot kabi sohalarda faoliyat olib boruvchilarning barchasini jalb etgan. Ularning shoh va shoir Husayn Boyqaro huzurida o'zlarini namoyon etishlari uchun imkoniyat yaratishga harakat qilgan. Navoiyshunos S.G'aniyeva "Alisher Navoiy" kitobida shunday yozadi: "Navoiy boshchilik qilgan Hirot madaniy muhitida tilshunos olimlardan Sayfiddin Ahmad, Shayx Husayn, adabiyotshunoslardan Davlatshoh, Sayfi Buxoriy, Shamsiddin Muhammad Badaxshiy, Kamoliddin Husayn, tib olimi Darveshali, tarixchi olimlar Mirxond va Xondamir, xattotlar Sultonali Mashhadiy, Abdujamil kotib, Sultonmuhammad Xandon, rassomlardan Kamoliddin Behzod, Shohmuzaffar, bastakor va sozandalardan G'ulom Shodiy, Xoja Mirvoriy, ustod Qulmuhammad Udiy, Shayx Noyi, Husayn Udiy, ustod Kichik Ali Tanburiy, ustod Ali Xoniy, hofiz Sultonmahmud Ayshiy, shoirlardan Shayxim Suhayliy, Bobo Sho'rida, Kamoliddin Binoiy, Hofizi Sa'd, Osafiy, Sohib Doro, Badriddin Hiloliy va boshqalar samarali ijod bilan shug'ullanganlar"[G'aniyeva, 1962: 13].

Hirot adabiy maktabi keyingi davr uchun ham ibrat bo'ldi. Jumladan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Muhammad Rahimxon II – Feruz shoh va shoir sifatida davlatning ijtimoiy, madaniy hayotiga e'tibor qaratish hamda shoirlar davrasini tashkil etishni Husayn Boyqaro hukmronligidagi Oliy majlisga monand tarzda olib borishga intildi.

Feruz davri shoirlari Alisher Navoiy ijodiga kuchli hurmat va sadoqatli muhabbat bilan yondashganlar hamda Navoiy g'azallariga muxammas, nazira bog'lash orqali shoir ijodidan poetik mahorat sirlarini o'rganishgan. Xorazm adabiy muhiti Navoiy an'alarini ijodiy davom ettirishda yetakchilik qilar ekan, bu adabiy ta'sir bir necha bosqichda namoyon bo'ladi:

1. *Navoiy g'azallariga hamohang orginal she'rlar yaratish. Tatabbu'.*
2. *Shoir g'azallariga taxmislar bog'lash. Muxammas.*
3. *Navoiy asarlarini qo'lyozma va toshbosma nusxalarini ko'paytirish.*

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Shulardan Navoiy g'azallariga tatabbu' bog'lash xususida gapiradigan bo'lsak, Ogahiy, Feruz, Munis, Ahmad Tabibiy hamda ularga ergashgan holda shahzoda shoirlar Sultoniylar, Sa'diy, G'oziy, Asadlar ijodida bunday g'azallar ko'plab uchraydi. Biz Alisher Navoiyning "Badoyi ul-bidoya" devonidagi "Paydo" radifli hamd g'azaliga Ogahiy, keyin Feruz, shahzoda shoirlardan Sultoniylar, Sa'diy, Asad va G'oziy kabilar tomonidan naziralar bog'langan. Shunday naziralardan biri Navoiyning avval "Navodir un-nihoya" keyinchalik ma'lum tahrirlar bilan "Xazoyin ul-maoniylar" tarkibiga kiritilgan quyidagi bayt bilan boshlanuvchi g'azaliga edi:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo,

Yuzung quyoshig'a zarroti kavn o'lub shaydo... [1.5]

Navoiyning ushbu hamd g'azali yetti baytli bo'lib, bu g'azal Ogahiy devonida:

Zihi jonlarg'a vasling shavqidin ayshu tarab paydo,

Gahi dardu firoqing xavfidin ranju tab paydo... [2. 51]

tarzida, Feruz devonida:

Zihi bordur zuhuringga azal birla abad paydo,

Tafakkur aylabon zoting, qila olamas xirad paydo... [4. 9]

– tarzida boshlanadi.

Endi biz e'tibor qaratgan holat shuki, shahzoda shoirlar devonlarida ham Navoiyning ushbu g'azali doimo birinchi g'azal bo'lib kelgan. Bu holat Xorazm devonlarining an'anaviy boshlanmasiga aylangan. Sayyid Nosir to'ra Sultoniylar devonining O'zFA ShI qo'lyozmalar fondida 7095 raqami bilan saqlanayotgan "Devoniylar Sultoniylar"ning birinchi g'azali ham "Paydo" radifli g'azal bilan ochiladi. Ammo Sultoniylar devonining bu va boshqa toshbosma nusxalarida g'azal an'anadan chekingan holda besh baytdan iborat qilib berilgan va quyidagicha boshlanadi:

Zihi Qodir, sun'idin qilib arzu samo paydo,

Jahon bog'ida qildi yuz tumon nash'u namo paydo.

Biz "Bayozi Sultoniylar" deb ko'rsatilgan manba bilan tanishganimizda esa Sultoniylarning ushbu g'azali matni va baytlar sonida farqlanishlar kuzatildi. O'zFA ShI qo'lyozmalar fondida 1165 raqami bilan saqlanayotgan ushbu manbada Sultoniylarning "Paydo" radifli g'azali yetti bayt qilib beriladi. Ya'ni:

Qilib zoting bu olam ichra yuz zavqu safo paydo,

Jahon bog'ida qildi yuz tuman nash'u navo paydo.

Ajab sone'durursen zotingga xayli bashar qilsa,

Tafakkur har necha ne ibtido, ne intiqo paydo.

Berib bag'rig'a johu martaba avji samo uzra,

Chiqarding ba'zig'a aylayub necha turluk jafu paydo.

Ko'tarding turfa bu kim dahrdin zulmat qaro shamin,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Qilib xurshid ila oy jismida nuru ziyo paydo.

Bori ashyo vujudin aylading mavjud dahr ichra,

Jahon ahlig'a sun'ing aylabon ibratnamo paydo.

Qilib nechani zikringga zokir, lutfingga shokir,

Erur bir nechalar ko'nglida yuz turluk havo paydo.

Ilohiy aylabon Sultoniylar tilin bulbuligo'yo,

Onga hamding gulistonida qil necha navo paydo.

Ko'rinadiki, Sultoniylar hazrat Alisher Navoiyga izdoshlikni unga muhabbat, hurmat bilan davom ettirgan va Xorazm an'anasini buzmagani. Umumiy, Hirot adabiy muhiti o'zining salmog'i va badiiy qimmatini bilan keyingi davr adabiy maktablari uchun mayda vazifasini bajardi. O'z davrining sulton-u amirlari bu adabiy muhitdan ulg'u olgan holda an'analarni davom ettirishdi. Bejizga, Muhammad Rahimxon II Feruz toshbosma ishini yo'lga qo'yganida birinchilardan bo'lib Hazrat Navoiy asarlarini chop ettirmagan edi. Uning asosiy niyati Hirot adabiy muhiti yetakchisining asari asosida o'z davrida ham shunday adabiy muhit yaratish bo'lgan.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. Алишер Навоий. 1987. Наводир ун-ниҳоя. 2 жилд. – Т.: Фан.
2. Огаҳий. Асарлар. I жилд. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
3. Умарова, С. 2023. Суйима Ғаниева илмий-адабий мероси: тадқиқот усуллари ва мезонлари. Каталог монографий, 1(4).
4. Феруз. Элга шоҳу ишққа кул. Девон. Нашрга тайёрловчи Г.М.Исмаилова. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.
5. Ғаниева, С. 1962. Алишер Навоий. – Т.: Фан. – Б. 13.
6. Umarova S.Z. Diwanism in the Literary Environment of Khiva in the XIX-Early XX centuries. International Journal of Social Science Research and Review. 2022.
7. Умарова, С. (2024). Shahzoda shoirlar ijodida an'anaviylik. Ўзбекистан: тили ва маданият, 1(2), 50-65.